



UDK: 93085

Jasurbek AXMEDOV,

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy kotibi, PhD, dotsent

DSc, professor A.Ismailov taqrizi asosida

SOME CONSIDERATIONS ON THE INTANGIBLE CULTURAL HERITAGE OF KARAKALPAKSTAN

Annotation

This article examines jewelry art, the national women's headdress "saukele" and the wedding dress "kyzyl kiymeshek", which are considered unique elements of the intangible cultural heritage of the Karakalpak. In particular, the history, classification and comparative analysis of these elements are scientifically covered.

Key words: intangible cultural heritage, jewelry, saukele, kyzyl kiymeshek, art, museum, customs, traditions, decorations, costume.

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ О НЕМАТЕРИАЛЬНОМ КУЛЬТУРНОМ НАСЛЕДИИ КАРАКАЛПАКСТАНА

Аннотация

В данной статье рассматривается ювелирное искусство, национальный женский головной убор «саукеле» и свадебное платье «кызыл киймешек», которые считаются уникальными элементами нематериального культурного наследия каракалпачков. В частности, научно освещаются история, классификация и сравнительный анализ этих элементов.

Ключевые слова: нематериальное культурное наследие, ювелирные изделия, саукеле, кызыл киймешек, искусство, музей, обычаи, традиции, украшения, костюм.

QORAQALPOG'ISTON NOMODDIY MADANIY MEROSIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada qoraqalpoq nomoddiy madaniy merosining eng noyob elementlari hisoblangan zargarlik san'ati, ayollarining milliy bosh kiyimi "saukele" hamda nikoh ko'ylagi "qizil kiymeshek" haqida so'z yuritiladi. Xususan, mazkur elementlarning tarixi, tasnifi hamda qiyosiy tahlili ilmiy yoritilgan.

Kalit so'zlar: nomoddiy madaniy meros, zargarlik, saukele, qizil kiymeshek, san'at, muzey, urf-odat, an'ana, bezak, libos.

Kirish. Qoraqalpoq xalqining nomoddiy madaniy merosi o'zining turfa xilligi bilan ajralib turadi. Bu meros avloddan-avlodga o'tib kelayotgan urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, marosimlar hamda hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar majmui bo'lib, qoraqalpoq xalqining tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va madaniy o'ziga xosligini ifoda etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XIX - XX asrlarda Qoraqalpoq zargarlik san'ati rivojlana boshlaydi. Bu davrda zargarlar asosan ayollarning bezak buyumlarini tayyorlagan. Har bir ovulning o'z zargari bo'lgan. Ularning ishlari bir biridan farq qilgan [1]. Taqinchoqlarda xotin-qizlarning ijtimoiy ahvoli va yoshi bo'yicha tabaqalanishiga qat'iy amal qilingan. Taqinchoqlar qiz bolaning bolalikdan balog'at sari yetishishida murakkablashishi, qariyotganida taqadigan taqinchoqlarining esa soddalashuvi kuzatiladi.

Qoraqalpoqlarning urf-odatlari va an'analari zaminida ham zargarlik buyumlari alohida o'rin tutadi [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Xususan, qizlarning taqinchoqlari yomon ko'zlardan asrovchi tumorlari va munchoqlarining ko'p bo'lishi bilan ajralib turadi. Qoraqalpoq qizlarining to'y sarposida ayollar taqinchoqlariga juda jiddiy e'tibor beriladi. Bu qat'iy urf-odatga aylangan. Bunda yosh kelinchakni ko'z tegishidan asrash haqidagi diniy-marosimi tasavvurida yetakchilik qiladi. Deyarli barcha taqinchoqlar yomon ko'zdan asrovchi vazifani o'tagan. Bunda ham qizlar va onalarga nisbatan "sharqona" qarash muhim o'rin tutadi. Albatta, bunda ota va erning boyligi hamda ijtimoiy ahvoli ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bezaklar kelinning peshona va chakkasini to'la qoplab, ularni ko'z, suq va afsunlardan himoya qiladi. Faqat yanoqlar ochiq qoldiriladi. Ularga qo'shimcha burun sirg'asi, mayda shokilalardan iborat

"xalqoshga sirg'a" kabilar taqilgan. Ular ham kelin yuzini to'sib turgan.

Shu asosda yangi kelinning taqinchoqlari kishi nazarini o'ziga tortib, uni yomon ko'zlardan asrovchi o'ziga xos parda vazifasini o'tagan. E.Gorojankinaning ta'kidlashicha, musulmon ayollari libosida zargarlik buyumlarning ko'pligi va juda bezatilganligi jamiyat hamda oila uchun qadrlil xotin-qizlarning yuzini berkitib, ularni yomon nazardan asrash uchun xizmat qilgan. Bunda taqinchoqlar o'zining oddiy vazifasidan farqli sirli hususiyatga ega deb qaralgan. Agar ular taqib yurilsa, yuqoridagi hislatlar kishiga o'tib qoladi, degan tasavvur bo'lgan. Shuning uchun qadimda taqinchoqlarda ko'proq jonzod va qushlarning a'zolari shaklida bo'lgan. Ko'krak taqinchoqlaridan yana bir turi qal'a devori qismi ko'rinishini eslatadi [3].

Tahlil va natijalar. Ta'kidlash joizki, qoraqalpoq zargarlik san'atida yomon nazardan asrovchi ramzlar xoch ko'rinishidagi "shar tuyme" (quyosh va olov qudrati ramzi) hamda "aishiq" yonda osib yuriladigan antropomorf tasvir ko'rinishida talqin etiladi. Uslublashtirilgan ayol tanasi ona xudo deb aytiladi. Chetlarida jonivorlarning panjasi yoki tumshug'i, baliq yoki ilonning boshi shakli o'laroq marosim bilan bog'liq qadimgi urf-odatga ko'ra, keng ma'noni kasb etadi. Ko'krakka taqiladigan "haykal" (yirik tumor) taqinchoqlar ham o'ziga xos ahamiyatga ega.

"Jez bilezik" asosan yoshi katta ayollarga sovg'a qilingan. Ayollar uni taqib yurmagan, balki kelin va kuyovning nikoh to'yi ramzi sifatida sandiqlarida saqlagan. To'y kuni kelin uzuk, burun uzukbuloqini birinchi marta taqib oladi. Bu arxaik tushunchalarga ko'ra, insonni boshqa holatga o'tganligi ramzi hisoblangan.

To'ydan keyin (erli ayol bo'lgach), bola tug'gandan so'ng (ona bo'lgach), bolalarini uylantirganidan boshlab (onaning onasi bo'lgach), biror yaqin kishisi vafot etganidan keyin ayol shille (chilla) davrida o'zini taqinchoq taqishdan tiyib yurgan. Taqinchoqlarni butunlay yig'ishtirib olinishi insonni boshqa bosqichga o'tganligini, ya'ni vafot etganligini anglatadi. Aynan o'tish davrlaridan keyin qoraqalpoq ayollari ayrim turdagi taqinchoqlarini taqishmagan yoki ularni soddaroq taqinchoqlar bilan almashtirishgan. Marosimlarda taqiladigan zargarlik buyumlari sehr kuchiga ega deb kelingan. Ular ayolning boshqa holatga, boshqa hayot pog'onasiga o'tganligini bildirgan [4].

Shunday qilib, qoraqalpoqlarda xalq bayramlari va oilaviy marosimlarda taqish uchun qat'iy belgilangan taqinchoqlar bo'lgan. Ularning shakli, bezagi o'zgarib va ifodalaydigan ma'nosiga ko'ra kundalik taqinchoqlardan farq qilgan. Ularning qadimgi estetik jihatlari va badiiylik darajasi urf-odatlar bilan bog'liq bo'lib qolganligini qoraqalpoqlarning sirli dunyodan nisbatan ajralib yashaganligi bilan izohlash mumkin.

Bundan tashqari, islom dini kirib kelgandan keyin ham qoraqalpoq xalqi o'z an'analari davom ettirib, qadimgi diniy qarashlari saqlanib qolgani tufayli marosim taqinchoqlaridan ham foydalanilgan. Taqinchoqlarning yuksak sifati va qimmatbaholigi taqinchoqlarni ehtiyot qilib saqlash, ularni avloddan avlodga meros tariqasida o'tkazishni taqozo etgan.

Marosim taqinchoqlari kumushdan yasalgan bo'lib, tilla, marjon, feruza toshlar bilan ham bezatilgan. Ular juda jozibador qilib ishlangan bo'lib, og'irligi juda salmoqli bo'lgan. Taqinchoqlar dastlab marosim ramzlari sanalgan bo'lsa, keyinchalik ular boy badavlatlikni ko'rsatuvchi belgiga aylangan. Bulardan tashqari, taqinchoqlarga o'ziga xos bezak shakli berilgan.

Qoraqalpoqlarning marosim taqinchoqlari turkman, o'zbek, qozoq xalqlari taqinchoqlari bilan shaklan o'xshab ketadi. Lekin zargarlik buyumlariga tushirilgan bezaklari shakli jihatidan o'zgarishlari bilini turadi. Masalan, turkmanlarning (tekin qabilasiga mansub) bezatilgan bilaguzuklari qoraqalpoqlardagi "xasil tasli bilezik" yassi bilaguzukning tayyorlash texnologiyasiga mos keladi, "quyma bilezik" qoraqalpoqlarda ham, Xorazm o'zbeklarida ham bo'lgan. Qoraqalpoqlarning "baqa tuyme", turkmanlarning "dag'dani" va xorazmlarning "yarimtirnoq" singari bo'yinga osiladigan taqinchoqlari, qadimgi ko'chmanchi qabilalarning baqa tasvirli "ongirmonshaqi" o'z shakli va vazifasiga ko'ra, tojiklarning "peshavoz" va "peshhaltasi" bilan aynan bir xildir. To'ylarda kelinlar boshiga kiyadigan "saukele" (qadimgi dubulg'a shaklidan kelib chiqqan) qoraqalpoq, qozoq va qirg'iz xalqlarida ham mavjud. Ammo ularning badiiy bezaklari turlicha bo'lgan.

Qoraqalpoq va turkman zargarlik buyumlari o'zining tayyorlanish texnologiyasi, kompozitsiyasi va bezaklarning xususiyatlari, badiiy uslubining soddaligi va mahobatligi bilan bir-biriga o'xshab ketadi.

Shu bilan birga, qoraqalpoqlarning ko'pgina zargarlik buyumlari o'zining badiiy uslubiga ko'ra boshqa qardosh xalqlar taqinchoqlaridan tubdan farq qiladi. Xususan, qoraqalpoqlarning "shar tuyme" buyin taqinchog'i, belboqqa osib yuriladigan "ayshiq" "tobelik" bosh kiyimi, "qiran" taqinchog'i, "ongirshe" qizlar taqinchog'i kabilar boshqa xalqlarda deyarli uchramaydi. Umuman, qoraqalpoq ayollari zargarlik buyumlarida dunyoni metaforik tarzda idrok etishga intilish kuzatiladi. Bundan tashqari, bu taqinchoqlar ayollarning hayot tarzi, yoshi va ijtimoiy ahvoli hamda qaysi qabiladan ekanligini aks ettirgan. Taqinchoqlar ayollar hayotining turli bosqichlarini bildiradigan ramziy belgi vazifasini ham bajargan. XIX-XX asrlarga tegishli bo'lgan zargarlik buyumlari hozirgi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyi fondlarida

saqlanib kelmoqda. Ularning ayrimlari hozirda bebaho eksponatlar sifatida saqlanadi.

Arxeolog S.Tolstovning ilmiy tadqiqod natijalariga ko'ra Orol bo'yida yashagan qoraqalpoqlar yarim ko'chmanchi xalq bo'lganiga qaramasdan etnografik va milliy madaniy meroslari yaxshi rivojlangan [5]. Mazkur xalqning milliy urf-odatlarini, milliy kiyimlari, zargarlik san'ati, yog'och o'ymakorlik, kulolchilik, kashtachilik, gilamdo'zlik san'atlari mavjud bo'lgan. Shu bilan birga geografik joylashuvidan kelib chiqib o'rta asrlarda boshqa xalqlar bilan o'zaro savdo sotiq aloqalari bo'lgan. Iqtisodiy rivojlanish o'sib borgan. Qoraqalpoq xalqi hunarmandchilik buyumlarini boshqa davlatlarga sotgan yoki ayiriboshlagan. Erkaklar - temirchilik, uychilik (o'tov yasash), duradgorlik, ovchilik bilan shug'illangan bo'lsa, ayollar asosan kashtachilik, to'qimachilik bilan mashg'ul bo'lishgan. Qoraqalpoq milliy kiyimlari moddiy madaniyatining eng qiziqarli elementlaridan biri hisoblanadi. Aholi orasida yaxshi saqlanib qolgan ayollar liboslari tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Qoraqalpoq ayollarining milliy bosh kiyimlaridan biri "Saukele"dir. Saukelega o'xshash bosh kiyimlarni Volga va Markaziy Osiyoning boshqa xududlarida ham uchratish mumkin [6].

Qoraqalpoq saukelesi jun matodan ishlangan. Tepa qismi dumaloq gumbazsimon bo'lib, quloqni yopib turgan. Asosiy gumbazga o'xshash joyi kigizdan ishlanib, ustiga qizil rangli jundan to'qilgan mato bilan tikilgan. Rangli toshlar va munchoqlar, metaldan yasalgan zargarlik buyumlari bilan bezatilgan. Saukelening yuqori qismi "tumak" deb nomlanib, uning ustki qismida xochsimon metaldan yasalgan yoki rangli iplardan naqshlar tikilgan. Peshona qismini qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. Bu nishonlar aholi orasida "jiga", saukeledeg boshqa mayda nishonlar "kran" deb ataladi. Orqa tomoni uzun mato biriktirilib tikilgan bo'lib, pastki qismi uchta, bazida to'rtta qismga bo'lingan. Shunga o'xshash bosh kiyimlar Chuvashlarda "tuxiya", Bashqirlarda "takiya", Udmurlarda "teky" deb nomlangan. Chuvashlarda tuxiyaning quloqni yopib turuvchi qalqon qismi teridan tikilgan. O'rta Osiyoning turkiy xalqlari va qoraqalpoqlarda "taxiya" termini keng tarqalgan. A.Morozovning tadqiqotlarida qoraqalpoqlarda "marjon taxiya" (marjon toshlar bilan bezatilgan) bosh kiyim saqlanib kelgani qayd qilingan. "Saukele" termini qoraqalpoqlarning "Qirg'iz" dostoni syujetida uchraydi. Unda sarkarda qiz jangga chiqishdan oldin saukele kiygani aytiladi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra "Saukele" qo'mondonlarning kuch qudrat ramzi hisoblangan. 1940-yilgi arxeologik tadqiqotlar davomida topilgan Xorazm shoh tangasida ham shunga o'xshash bosh kiyimni ko'rish mumkin. Tuproq qal'adan topilgan mazkur tangadagi shoxning tasvirida bosh kiyimi shlemga o'xshash (gumbazsimon) yarim aylana shaklda bo'lib, ikkita quloqni yopib turuvchi qalqon qismi dumaloq toshlar bilan bezatilgan [7].

"Saukele"ni tikishda zargarlarning mehnati alohida bo'lgan. Ular rangli tosh va metallar bilan nozik qilib bezatilgan. Hozirgi vaqtda "Saukele" Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyining etnografiya kolleksiyasida bebaho eksponat sifatida saqlanib kelinmoqda. Shu bilan birga ekspozitsiyadan joy olgan bo'lib, tashrif buyurgan tomoshabinlarda katta qiziqsh uyg'otmoqda.

Tabiiyki nomoddiy madaniy meros namunalarini ijtimoiy hayotning bir bosqichdan ikkinchisiga meros bo'lib o'tib, avlodlarning beqiyos madaniy boyligiga aylanib boraverdi. Qadimgi an'anaviy udumlarining hayotga qayta tadbiiq qilinishi - xalq amaliy san'at namunalari bo'lgan qiziqishning ortishi bilan bog'liq ehtiyoj muhim omillardan biridir. Zamonaviy hunarmandchilik taraqqiyotining yorqin tomoyillaridan biri XIX-XX asrlar boshlariga oid umume'tirof etilgan mumtoz qonun qoidalariga izchil rioya qilish, shuningdek an'anaviylikni saqlab, uni yanada rivojlantirishdir.

Qoraqalpoq xalq amaliy bezak san'ati juda boy bo'lib, ayniqsa, yog'och o'ymakorligi, misgarlik, kashtachilik, zargarlik va gilamdo'zlik san'ati turlari rivojlangan. Qoraqalpoq kashtachilik san'atidagi bezak naqshlarning eng muhim jihati shundaki, unda murakkab cho'l sharoitida yarim ko'chmanchi bo'lib yashagan xalqning dunyoqarashi aks ettirilgan.

Bezak naqsh san'ati sehr himoya vositasi bo'lishi barobarida, juda muhim estetik ahamiyatga ega. Liboslardagi naqshlar qoraqalpoq qizlariga nikoh kunida o'zlarining qaysi qabiladan ekanligini bildirish uchun vosita vazifasini bajargan. Shu boisdan nikoh to'yida kelinning liboslariga albatta u mansub qabila ramzi naqshlar vositasida ifodalangan[8]. Qoraqalpoq nikoh ko'ylagi hisoblangan "Qizil kiymeshek"da 12 ta asosiy naqsh shakli mavjud.

Bular, jun naqsh, g'auasha yoki yirik gul (g'o'za yoki o'rik guli), romb shaklidagi to'rga o'xshash (kesilgan shoh) naqsh, sakkiz yoki o'n shoh, xuroson shohi, to'qasimon shaklli naqsh, ilonsimon naqsh, kalta gul (cho'ntakka tikilgan gul), it tovon, it tovon unsurli kesilgan shox, tuya tovon (hozircha yagona nusxasi mavjud), qo'ltiq tagidagi shohsimon naqsh.

A.Allamuradov tadqiqotlarida qizil kiymeshekning markaziy naqsh chizig'idagi kompozision yechimga e'tibor qaratgan. Zero, qizil kiymeshekning old tarafi bezaklari tuzilishi muayyan tartibga asoslanishi bilan xuddi "hayot daraxti"ga o'xshaydi. U vertikaliga "uchlik"ni hayotning paydo bo'lishi, rivojlanishi va tugallanishini ifodalaydi. Kiymeshekning pastki qismidagi bezaklarda suv, zoomorf, o'simlik motivlari va yerdagi hayot bilan bog'lik, belgi-ramzlar ko'proq ko'rsatilgan.

Qoraqalpoq xalq amaliy san'atidagi bezaklar ma'nolari tahlili shundan dalolat beradiki, qushlar, xayvonlar, o'simliklar tasviri, geometrik shakllarda ifodalangan barcha naqshlar himoya vositasi vazifasini bajargan. Ularning barchasi yuksak darajada ta'sirchan bo'lib, naqshda predmetlarining umumiy obrazini o'zida mujassamlashtiradi hamda uzoq tarixiy jarayonda shakllangan mahalliy an'analarni ifoda etadi. Bezak naqshlari kishilarning tabiat to'g'risidagi tasavvurini aks ettiruvchi obrazlar va belgilar tizimini hamda ularning u bilan bog'liq dunyoqarashi va o'ziga xos estetik didini namoyon etadi [9].

Kiymeshek - qoraqalpoq ayollarining sepiga kiruvchi eng zarur libos hisoblangan. Kiymeshekni umrning oxirigacha saqlash shart bo'lgan. Uni yo'qotish gunoh hisoblangan. An'anaviy kiymeshekning bichimi va umumiy ko'rinishi qanotini yoyib o'tirgan qushni eslatadi.

Yengsiz kamzulga o'xshagan bu libos ayol tanasining ustki qismi, ya'ni boshi, yelkasi, beli, ko'kragi, qo'llarini

yopib turgan. Qadimgi tasavvurlarga ko'ra, bu qismlar yer va yuqori dunyoning yuzasini anglatgan. Tadqiqotlarga ko'ra, qadimgi so'g'd ayollari ham shunday libosdan foydalangan. Arxeologlar topgan haykalchalarda kiymeshekni eslatuvchi libos mavjud ekanligi aniqlangan [10].

XX asr boshlarida Qoraqalpog'istonga kelgan A.E.Rossikova kiymeshekni shunday ta'riflaydi: To'y, bayramlarga borish uchun qoraqalpoq ayollari "kimishekkeste" deb nomlangan bosh kiyim kiyadilar. U quyidagicha tikiladi: biron-bir mato to'g'ri burchakli uchburchak shaklida kesib olinib, uning o'rtasidan ayol kishining yuzi sig'adigan qilib bichiladi. Dumaloq qilib bichilgan joy atrofiga jiyak tikiladi. Jiyak atrofi esa rang-barang shoyi bilan bezatiladi. Uchburchakning ikki tomoniga Buxoroda ishlab chiqarilgan katta shoyi ro'mol tikiladi. Bu ro'mol burchagi uchburchak mato burchagiga mos kelishi lozim. Ro'molning uchlari yergacha osilib turadi. Kiymeshek kavkazliklarning "bashlik"lariga o'xshab ketadi. Uning old tomoni ko'krak qismini yopib turgan bo'lib, faqat yuz qismi ochiq bo'ladi.

Abr xalqli Buxoro shoyisidan ("poshshoyi") yopqich sifatida faqat yosh ayollar kiyadigan "qizil kiymesheklar" tayyorlashda foydalanilgan. U an'anaviy tarzda tikilib, dizayni va ranglari (qizil-yashil-sariq) deyarli bir xilda bo'lgan. Yopqichning chetlariga bezakdor "kiymeshek quyriq" ulab tikilgan.

Bularning barchasi qoraqalpoq milliy kashtachilikning muhim jihatlari bo'lib, qoraqalpoq qizlari 14-16 yoshidayoq ularning butun sirlarini egallashgan. Kiymeshek xuvlarlar qo'llagan boy bezaklar turi hamda igna va ip yordamida o'zlikni namoyon etish namunasidir[11].

Xulosa va takliflar. Bunday ajoyib libos namunalarini qoraqalpoq kashtachilik san'atining o'ziga xos jihatlari mavjudligini ko'rsatadi. Shuningdek, ularda turkman, xorazm, boshqird, chuvash, mariylar va xatto, G'arbiy va Sharqiy Sibir xalqlari kashtachiligi bilan umumiy jihatlari bor. G.Soloyeva ta'biri bilan aytganda: "Boshqa tilga nisbatan bezak tilini tushunish osonroq. Bu bezaklarning bir xalqdan ikkinchi xalqqa o'tib borishini ta'minlaydi" Kiymeshek Orol bo'yida yashovchi "qoraqalpoqlar etnogenezi" uchun noyob hodisa bo'lib qoldi. U hozirgi paytda iste'moldan chiqqan [12].

Xulosa qilib aytganda qoraqalpoq xalqining nomoddiy madaniy merosi tarixiy xotira va madaniy identiklikning asosiy qismlaridan bo'lib, o'z ichiga uzoq tarixga ega bo'lgan, o'ziga xos milliy urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi, ijrochilik san'ati va hunarmandchilik an'analarini qamrab oladi. Ushbu merosni asrab-avaylash, ilmiy tadqiq qilish va kelajak avlodga yetkazish madaniy taraqqiyoti uchun juda muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. Жданко Т., Камалов С. Этнография Каракалпаков XIX- начало XX века (материалы и исследования). Ташкент, 1980. С. 159-160.
2. Allamuratov A. Mangi miyras qaraqalpaq xaliq qol oneri tuo'rali. - N.: 1977. 56 b.
3. Mambetov K. Qaraqalpaqlardin etnografiyalik tarixi. - N.: 1995. 36 b.
4. O'sha joyda. 43 b.
5. Алламуратов А. Манги мийрас. Нукус, 1993.
6. Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции 1945-1948 гг под общей редакцией профессора С.Толстова и Т.Жданко. 1 том. Москва, 1952.
7. Народная одежда удмуртов. Труды института этнографии АН СССР. М., 1951.
8. Mambetov K. Qaraqalpaqlardin etnografiyalik tarixi. - N.: 1995. 63 b.
9. Алламуратов А. Каракалпакская народная вышивка. Нукус, 1977. С. 49.
10. Allamuratov A. Mangi miyras qaraqalpaq xaliq qol oneri tuo'rali. - N.: 1977. 33 b.
11. Алламуратов А. Каракалпакская народная вышивка. Нукус, 1977. С. 53.
12. Allamuratov A. Mangi miyras qaraqalpaq xaliq qol oneri tuo'rali. - N.: 1977. 47 b.